

Farishtaning hikoyasi



13:02 / 19.08.2024 3562

Assalomu alaykum. Siz farishtalar haqida eshitganmisiz? Hozir esingizga solaman: «Bolajonim, uyga bismilloh aytib kir, bo'Imasa, uyning farishtasi qochadi». «Hushtak chalma, farishtasiz bo'lib qolasan», «Doimo yaxshi niyat qil, yaxshi gapgayam, yomon gapgayam farishtalar omin deydi»... Siz bunaqa shirin o'gitlarni kimlardan eshitasiz-a? O'y lab ko'rdingizmi? Albatta, bobojonlaringiz, buvijonlaringizdan. Yana bu tabarruk kishilar birovni maqtamoqchi bo'lsalar «Baraka topsin, farishtali odam-da», deb qo'yishadi. Yoki birov ularga yoqinqiramasa, «Voy, muncha befarishta odam ekan-a?» deb qo'yishadi.

Bundan keyin siz har bir odamning ikki yelkasida ikkita farishta borligini, o'ng yelkadagisi odamning savob ishlarini, chap yelkadagisi gunoh ishlarini yozib borishini ham eshitgansiz.

Biz farishtalar hamma yerda hozir-u nozirmiz. Biz judayam ko'pmiz. Aytaylik, quyoshning nurlarini sanab bo'ladimi? Osmondagi yulduzlarni-chi? Soydagi toshlarnichi? Sanab bo'lmaydi! Biz ham ana shunaqa son-sanoqsizmiz. Bilasiz, Makka shahrida musulmonlar tavof etadigan Allohning uyi – Baytulloh bor. Xuddi shu Baytullohning qoq tepasida – osmonning to'rtinchi qavatida biz farishtalarning ham haj qiladigan muqaddas uyimiz bor.

Biz ham u joyni ziyorat qilib, ikki rak'at namoz o'qishni orzu qilamiz. Lekin qiyomatgacha bizga bir martagina navbat tegadi, xolos. Ikki marta tegmaydi. Bu ko'pligimizga misol, demoqchiman-da.

Bizni Alloh taolo tuproqdan emas, nurdan yaratgan. Bizda nafs yo'q. Yemaymiz, ichmaymiz. Jinlarga o'xshab musulmon, kofirlarga bo'linmaymiz. Bizlarning hammamiz komil musulmonmiz. Qiladigan ishimiz Allohga ibodat va itoatdir.

Alloh Odam alayhissalomni yaratib, unga sajda qilinglar, deganda birinchi bo'lib biz buyruqqa itoat qilganmiz. Lekin bu sajda Allohga qilingandek emas, U Zotning buyrug'iga ko'ra, Odamga hurmat yuzasidan bo'ldi. Alloh taolo har bir odamga jon ato qilgandan boshlab to joni chiqqunicha bizni o'sha odamning xizmatiga buyurib qo'ygan. Biz hatto odamning kuni bitgach, tanadan chiqqan ruhni ham Allohning Arshiga olib chiqamiz. Lekin sizlarga aytib qo'yay, hamma ruhlar ham Arshga chiqavermaydilar. Biz faqat Allohga itoat qiladigan solih insonlarninggina ruhlarini u joyga olib chiqamiz. Bunday ruhlar judayam xushbo'y, ukpardek yengil bo'ladilar. Ulardan jannat gullarining isi kelib turadi! Biz bunday ruhlarni nurli kaftlarimizda erkalab, avaylab osmonning birinchi qavatiga olib chiqamiz. U yerda soqchi farishtalar bo'ladi. Biz birinchi osmon darvozasini qoqamiz. Shunda eshik og'alari: «Hay, hay, hay, bu kimning ruhi? Buncha muattar?» deb so'rashadi. Biz bo'lsak «Falonchi jannati odamning ruhi», deymiz. Shundan keyin osmon eshiklari ochiladi.

Yomon odamlarning ruhlari badbo'y bo'ladi. Biz ularni jirkana-jirkana osmonning birinchi qavatiga olib chiqamiz. Eshik og'alari bunday ruhlarga osmon eshigini ochishmaydi. «Tepaga yo'l yo'q, pastga olib tushing!» degan amr bo'ladi. Yomon odamlarning ruhi qiyomat kunigacha pana-pastqam, xilvat joylarda soyadek sudralib yurishga majbur bo'ladi.

Men sizlarning yaxshi inson bo'lishingizni juda-juda xohlayman. Siz bu dunyoda farishtalarni ko'rgan odamlar bormi, deb so'rarsiz. Bor. Biz payg'ambar Muhammad alayhissalom hayotlik paytlarida u kishining mo'jizalari bilan ayrim kishilarga ko'ringanmiz.

Bir marta bunday bo'lgan: Payg'ambarimiz sahobalari Ibn Mas'udni kechasi shahardan tashqariga olib chiqdilar. U kishini bir yerga o'tqazib qo'yib, atrofiga aylantirib doira chizdilar-da, «Sen shu yerda qimirlamay o'tira tur», deb o'zlari jinlarga dars bergani ketdilar. Yarim tunda qaytib kelib, Ibn Mas'udning tizzasiga muborak boshlarini qo'yib, uqlab qoldilar. Shunda biz osmondan go'zallikda tengi yo'q, xushro'y, oppoq harir liboslarda tushib keldik. Ha, men ham ularning safida edim. Farishtalar Allohning Rasulini biri olib, biri qo'yib ta'riflay ketishdi. Biri dedi:

- Bu zotga Xudo tarafidan berilgan ne'mat hech bir odamga berilmagan. Shu kungacha bunday ulug' inson tug'ilmagan.

Ikkinchisi unga qo'shimcha qildi:

- Bu hazratni qaranglar, ko'zlari uyquda-yu, qalblari uyg'oq.

Uchinchi farishta bunday dedi:

- Bir podshoh juda chiroyli saroy qurdiribdi. Uning ichini dur-u gavharlar bilan bezatibdi. Keyin katta dasturxon yozib, ustini noz-u ne'matlar bilan to'ldiribdi. Shundan keyin o'zining sodiq elchilarini chaqirib, «Boring, qo'l ostimdagi jamiki fuqaroni bu muhtasham saroyga boshlab keling. Noz-ne'matlardan yeyishsin. Shunda men ulardan rozi bo'laman. Agarda kelishmasa, men ularga qahr qilaman», debdi. Bu Podshoh - Allohdir. Saroy esa jannatdir. Elchilar - payg'ambarlardir. Muhammad alayhissalom odamlarni ana shu saroyga, ya'ni jannatga chaqirgani kelgan elchidir. U kishidan keyin boshqa payg'ambar kelmaydi. U zot oxirgi zamon Payg'ambaridir.

Bu gaplarni Ibn Mas'ud o'z quloqlari bilan eshitib, biz farishtalarni payg'ambar mo'jizalari tufayli o'z ko'zi bilan ko'rdi. Tong yorisha boshlagach, biz osmonga ko'tarilib ketdik. Shundan so'ng Allohning rasuli uyg'ondilar va:

- Ey Ibn Mas'ud, sen ularning so'zlarini angladingmi? Kimliklarini bildingmi? Ular - Allohdan kelgan farishtalardir, - dedilar.

Ibn Mas'ud tunda ko'rganlarini hayajon bilan, to'lib-toshib sahobalarga hikoya qilib berdi.

Ana shunaqa. Ulg'aying. Payg'ambarimiz sunnatlariga amal qiling. Allohning muhtasham saroyi - jannatga doxil bo'ling. Buni biz - farishtalar ko'rib quvonaylik. Men sizlar bilan xayrlashmayman. Nega desangiz, biz hamisha siz bilan birgamiz!

Erkin bobo

«Hilol» jurnali 1(58)son